

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti. **Хо`жюзова Д.Ш.,**

3-kurs geografiya yo'nalishi talabasi.

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона

Беруни,

Хожязова Д.Ш., студент 3-го курса направления "География"

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni.

Khojyozova D.SH., student of the 3rd stage of the "Geography" course

QUYI AMUDARYO MINTAQASIDA EKOLOGIK TURIZMNI

RIVOJLANTIRISHDA TABIIY SHAROIT VA QADIMIY

OBIDALARNING O'RNI

Annotatsiya: Mintaqaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida ekologik turizmning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Quyi Amudaryo mintaqasi O'zbekistonning eng muhim tabiiy va tarixiy hududlaridan biri bo'lib, ekologik turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Mazkur maqolada mintaqaning tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlari, relyef tuzilishi, suv resurslari hamda o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xosligi tahlil qilingan. Shu bilan birga, qadimiy obidalar – "Arda Xiva", "Qo'sha darvoza", "G'ovuk ko'l", "Kalta Minor" va boshqa tarixiy yodgorliklarning ekologik turizmni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, tabiiy muhitni asrash va tarixiy merosni himoya qilish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola natijalariga ko'ra, ekologik turizm Quyi Amudaryo aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, yoshlar orasida ekologik madaniyatni oshirishda muhim omil bo'la oladi. Muallif mintaqada zamonaviy ekoturizm infratuzilmasini shakllantirish, transport va xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash, tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo'yicha takliflar bergan. Shu jihatdan maqola ekologik turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega ilmiy ish sifatida e'tirof etiladi

Kalit so'zlar: ekologik turizm, Arda Xiva, tabiiy muhit, ekologik barqarorlik, favvora, Qo'sha darvoza, gondol, G'ovuk ko'l, Kalta Minor, Neolit.

**РОЛЬ ПРИРОДНЫХ УСЛОВИЙ И ДРЕВНИХ ПАМЯТНИКОВ В
РАЗВИТИИ АМУДАРЬИНСКОМ РЕГИОНЕ**

Аннотация: Нижнеамударинский регион является одним из важнейших природных и исторических районов Узбекистана, обладающим большим потенциалом для развития экологического туризма. В данной статье проанализированы природные условия региона, климатические особенности, рельеф, водные ресурсы, а также разнообразие флоры и фауны. Особое внимание уделено роли древних памятников — «Арда Хива», «Коша дарвоза», «Говук кель», «Калта Минор» — в формировании экологического туризма. В исследовании рассматриваются вопросы обеспечения экологической устойчивости, сохранения природной среды и защиты исторического наследия. Полученные результаты показывают, что развитие экологического туризма способствует созданию новых рабочих мест, росту экономики и повышению экологической культуры населения Нижнеамударинского региона. Автор предлагает рекомендации по формированию современной инфраструктуры экотуризма, улучшению транспортных и сервисных систем, а также охране природных территорий. Таким образом, статья имеет практическое значение и направлена на устойчивое развитие экологического туризма в регионе.

Ключевые слова: экологический туризм, Арда Хива, природная среда, экологическая устойчивость, фонтан, Двойные ворота, гондола, озеро Говук, Кальта Минор, неолит.

THE ROLE OF NATURAL CONDITIONS AND ANCIENT MONUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM IN THE LOWER AMU DARYA REGION

Abstract: The Lower Amudarya region is one of the most important natural and historical areas of Uzbekistan, possessing great potential for the development of ecological tourism. This article analyzes the region's natural conditions, climate characteristics, relief, water resources, and biodiversity. In addition, it highlights the role of ancient monuments such as "Arda Khiva," "Qo'sha Gate," "G'ovuk Lake," and "Kalta Minor" in forming ecological tourism. The study emphasizes issues of ensuring ecological stability, preserving the natural environment, and protecting historical heritage. The results show that ecological tourism can create new jobs, stimulate economic growth, and enhance environmental awareness among the local population of the Lower Amudarya. The author also presents proposals for developing modern ecotourism infrastructure, improving transport and service systems, and protecting natural territories. Thus, this article is recognized as a scientific work of practical importance aimed at the sustainable development of ecological tourism in the region.

Keywords: Ecological tourism, Arda Khiva, natural environment, ecological sustainability, fountain, Double Gate, gondola, Govuk Lake, Kalta Minor, Neolithic. ecological tourism, recreation zones, environment, ecological sustainability, Ustyurt, Aral sea area, muddy salt, neolith period, Qiyat, Katkal'a, Tup'rakkal'a.

Kirish. Insoniyatning iqtisodiy, texnikaviy, madaniy rivojlanishi hamda kishilar turmush darajasining yaxshilanishi bevosita turizmga ishtiyoqni uygotadi. Xususan, keyingi yillarda dunyo miqyosida turizmning ulushida ekoturizmning xissasi 12 foizdan ortib ketdi va shu sohada uning istiqbolli yo'nalish ekanligidan dalolat bermoqda. Jahon turizm industriyasi tahlillariga nazar tashlaydigan bo'lsak, tematik sayohatlarga talab oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Binobarin, azaldan tabiat insonni o'ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun tabiatga sayohat qilish, qolaversa, tabiatning biror turi bo'yicha turistik marshrutlarga chiqish istagi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Butun dunyo miqyosida keyingi yillarda ekoturizm sayyohlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Butun turizm ulushida ekoturizmdan keladigan daromad 12% dan oshib ketdi. Buning asosiy sabablaridan biri tabiatga sayohat inson uchun xuzr-xalovat bagishlaydi. Shuning uchun xam jahon turizm industriyasida tabiat ob'ektlariga sayohat qilishga talab kundan-kunga oshib bormoqda.

Ekoturizm – yangi va eng harakatchan turoperatorlarni aniq harakatga boshlovchi yo'l bo'lib, bunda sayohatchilar o'zlarini tabiat bilan uyg'ulikda his qiladilar va ona tabiatga bo'lgan ijobiy qarashlar shakllanadi. Shularni hisobga olgan holda ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ekoturizm daromad keltirishi, bandlikni yaxshilash va shu yo'llar orqali mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashdan tashqari tabiatni muhofaza qilish maqsadlarini ham ehtiborga olishi lozim. Unga ta'sir etadigan quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. strukturaga mosligini ta'minlash, ekologik toza qurilish materillarini qo'llash, maishiy, mahalliy mahsulotlar bilan bevosita ta'minlash, chiqindilarni kamaytirish choralarini qo'llash, mavsumiy oziq-ovqat mahsulotlarini konservatsiyalash va ikkilamchi ishlatish, biologik usullarda yetishtirilgan oziq- ovqatlarni ko'paytirish, ekologik moslashgan takliflar berish, muhofazadagi o'simliklar va xayvonlarni ko'rsatish, bilim va estetik jihatdan qiziqarli tabiat manzaralarini taklif qilishdan iborat.

Ishning maqsadi va vazifalari. Quyi Amudaryo hududida ekologik turizmning keng yo'lga qo'yilishi chet ellik mehmonlarning vohaning boy va betakror tabiati to'g'risidagi tassavurga ega bo'lishlari, fuqarolarining o'z Vatani bilan yaqindan tanishishlari, o'zlarida ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini shakllantirishlariga zamin yasaydi.


Mavzuning dolzarbligi esa ekologik turizm salohiyatining oshishi turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik funktsiyalarning bajarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik turizmni rivojlantirish zarurati uning faqat foyda keltiradigan soha deb xisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlariga olib kelishi tabiiy [1]. Uning salbiy oqibatlarini eng avvalo, o'simliklar nobud va payxon bo'lishida ko'ramiz. Bundan tashqari yerlar o'piriladi va zichlashib ketadi, xayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi ular notabiiy to'planadi, suvda yashaydigan xayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon yetadi, suvning ifloslanishi yuz beradi, noyob turlar kamayadi, xayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, qoyalar yemiriladi. Demak, ekoturizm doimo davlat, jamoat tashkilotlari nazoratida bo'lishi, unga doir qonunchilikka og'ishmay amal qilishi lozim.

Asosiy qism. Ustyurt ekoturistik hududini oladigan bo'lsak, u O'zbekistonning shimoliy-g'arbi-Qoraqalpoqistonda joylashgan plato bo'lib, uning umumiy maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta-1000 km² li tuzli Borsakelmas sho'rxoki bilan mashhur. O'simlik dunyosi deyarli yo'q, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo'ng'iro't soda zavodi aynan ana shu xom ashyo hisobiga ishlaydi. Neolit davridan qolgan "Ustyurt makoni" xam noyob tabiiy resurslardan biridir[1].

Ekoturistik marshrutlar bir paytning o'zida ham Orolning qurigan, ham uning ta'sirida bo'lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Bunday hududlarda, bizning fikrimizcha ekoturlar nafaqat piyoda yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Amudaryoning o'zaniga yaqin sohillardagi to'qayzorlardan iborat bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli, noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan[17]. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uveys tog'lariga

ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Bunday joylarda ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borishni tavsiya qilish mumkin[2,18].



1-rasm „Ardayiva majmuasi”

Quyida Amudaryo mintaqasida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm yoki ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shu jihatlarni e'tiborga olib O'zbekiston prezidenti tashabbusi bilan Afsonaviy Ichan qal'a yaqinida yangi turizm markazi — "Arda Xiva" sayyohlik majmuasi paydo etildi[16]. Ushbu majmua hozirning o'zida "Xivaning yo'ldosh shahri" deb nom olgan. Qadimiy Xivani o'zida aks ettirgan "Arda Xiva" majmuasi 25 gektar maydonga teng bo'lib u Ichan qal'aning tarixiy uslubi asosida qurilgan. Majmuaning o'ziga xos "Arda Xiva", ya'ni "port shahri" deb tarjima qilinadigan nomi, uning joylashgan o'rnidan kelib chiqqan. Bir vaqtlar bu yerda, Xiva yaqinida Amudaryo o'zani o'tgan, hatto bu o'zan Kaspiy dengiziga quyilgan, degan ma'lumotlar ham bor. Bugungi kunda Amudaryodan bu yerda bir nechta yirik ko'llar qolgan[15,19]. Ulardan biri 150 gektar maydonni egallagan. Mahalliy tarixchilarning ta'kidlashicha, G'ovik ko'li qadimgi hunarmandlar maskani bo'lgan, aynan shu yerdan Ichan qal'a yodgorliklarini qurish uchun loy olib kelingan. Buyuk Ipak yo'lining o'ziga xos jozibasini qayta tiklash maqsadida G'ovik ko'li yaqinida, sayyohlik shaharchasi hududida suv rekreatsion zonalari va yirik savdo maydonchalari barpo etilgan[14]. Xivaning mashhur Ichan qal'asiga tashrif buyurishdan oldin ajoyib "Arda Xiva" sayyohlik majmuasida to'xtab, qadimiy hunarmandchilik markazlari bo'ylab gondolalarda sayr qilib, sharqiy Venetsiya muhitini his etishingiz mumkin. Tashrif buyuruvchilar Qo'sh darvozaning yog'och o'ymakor eshigidan kirib, kichik

Xivaga yo‘l oladilar[3,20]. Bu yerda mashhur Kalta minor minorasining nusxasini va boshqa ko‘plab o‘rta asr uslubidagi me‘moriy inshootlarni ko‘rish mumkin. “Arda Xiva”ning betakror inshootlarini ko‘zdan qochirmaslik uchun majmua bo‘ylab sayohatni butun hududga yoyilgan eshkak eshish kanallari bo‘ylab o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Ko‘ngilochar suv mashg‘ulotlari ixlosmandlari uchun “Arda Xiva” hududida umumiy sig‘imi 4000 kishigacha bo‘lgan katta va zamonaviy attraksionlarga ega yopiq va ochiq akvaparklar barpo etilgan. Suv mototurlari uchun maydonchalar ham mavjud. Bu oilaviy dam olish yoki do‘stlar bilan hordiq chiqarish uchun ajoyib imkoniyatdir. Xalq amaliy san’ati muxlislari uchun bu yerda zamonaviy hunarmandchilik ustaxonalari ochilgan[13]. Ganch, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik va zardo‘zlik san’ati - bularning barchasini jonli ravishda ko‘rish, mahorat darslarida qatnashish va ko‘plab unutilmas taassurotlarga ega bo‘lish mumkin. Majmua hududida joylashgan “Ko‘hna Urganch” tarix muzeyi qadimiy Xorazmning boy madaniyatidan bahramand bo‘lishga yordam beradi[4]. “Arda Xiva”ning milliy va Yevropa oshxonasiga ixtisoslashgan shinam restoranlari qadimiy Xiva bo‘ylab qiziqarli gastronomik sayohatga chiqishingizga ko‘maklashadi. Bu yerda nafaqat xalq oshpazlarining eng sara taomlarini, balki Yevropa va aralash oshxona ixlosmandlari uchun ham keng turdagi taomlarni tatib ko‘rish imkoniyati mavjud. Restoranda o‘tirishga vaqti bo‘lmagan mehmonlar uchun “Arda Xiva”ning zamonaviy tezkor ovqatlanish maydoni keng assortimentdagi taomlarni taklif etadi. “Arda Xiva” majmuasi madaniy hordiq chiqarish uchun ajoyib maskandir[12]. Majmua markazida 3000 tomoshabinga mo‘ljallangan, katta sahnaga ega ulkan amfiteatr joylashgan. Bu yerda yirik madaniy tadbirlar: xalqaro festivallar, konsertlar va turli shou-dasturlar o‘tkazish rejalashtirilgan. Ulkan musiqiy favvora ko‘plab mahalliy va xorijiy mehmonlarni o‘ziga jalb etadigan maskanga aylanadi. Kino ixlosmandlari esa “Arda Xiva” majmuasi hududida barpo etilgan yangi kinoteatrlarda mahalliy va xorijiy kino sanoatining so‘nggi yangiliklari hamda o‘zbek kinosining durdonalaridan bahramand bo‘lishlari mumkin[11]. “Arda Xiva” “port shahri” degan ma‘noni anglatadi, bu nom esa uning joylashuviga bevosita bog‘liq, chunki bir paytlar bu yerlar orqali Amudaryo oqib o‘tgan va afsonalarga ko‘ra, u Kaspiy dengizi sari yo‘l olgan. Bugungi kunda mazkur hududda bir necha yirik ko‘llar saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan eng kattasi G‘ovuk ko‘li, u 150 gektar maydonni egallaydi[5].



2-rasm Ardaxiva turizm majmuasi

G'ovuk ko'li turizimini rivojlantirish turistik mahsulotlarning asosiy tarkibiy qismi sifatidagi ekologik resurslardan foydalanishning to'g'ri muvozanatiga bo'g'liq bo'lib, turizmning atrof-muhit va tabiatga salbiy ekologik ta'sirini kuzatish mumkin. Ekoturizm va ko'l turizimi sayyohlik sanoatining eng tez rivojlanayotgan qismlaridan biri hisoblanganligi sababli, jamoat guruhlari, shuningdek, nodavlat, notijorat tashkilotlari o'z mintaqalarida turizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsata oladi[6].

Bu yerda buyuk Ipak yo'li muhitini qayta yaratish maqsadida G'ovuk ko'li yaqinida dam olish hududlari, bozorlar va savdo maydonlari barpo etilgan. 3 million sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy tipda barcha qulayliklari mavjud bo'lgan, bir vaqtning o'zida 1000 nafar mehmonni qabul qila oladigan 20 ta mehmonxona qurilgan[7].

"Arda Xiva" da sayyohlik majmuasini rivojlantirish xamda ekologik turizmni yo'lga qo'yish maqsadida majmualiy infratuzilmalar y'ani 2 ta akvapark, 3 000 o'rinli amfiteatr, ko'ngilochar musiqali favvoralar, qadimiy hunarmandchilikni targ'ib qilqsh maqsadida 11 ta hunarmandchilik ustaxonasi, qadimgi Urganch muzeyi, manaviy dam olish ushun 5 ta kino va konsert zali, 9 ta milliy va xalqaro oshxona, zargarlik markazi va 70 ta do'kondan iborat savdo galereyasi barpo etilgan[10]. Bundan tashqari faol hordiqni xush ko'ruvchilar uchun suv motosikli va gondola-qayiq'larga moslashgan 2 km uzunlikda maxsus kanal qurilgan. Qo'sha darvoza deb nomlangan o'ymakor eshiklar orqali majmuaga kirilganda, mehmonlar haqiqiy Xivaning kichik namunasiga duch

kelishadi, bu yerda Kalta Minor va boshqa ko'plab arxitektura inshootlarining ko'rinishi aks etgan [8].

Sayyohlar Qo'sh-Darvozaning o'yilgan naqshlarini ko'rarkanlar ular o'zlarini o'rta asr Sharqi muhitida topadilar va tarix ruhini his qiladilar. Tor ko'chalarda sayr qiladilar, hunarmandchilik ustaxonalarini ko'rishadi va xuddi Sharqning Venetsiyasida bo'lganidek, gondolda sayr qilishadi. Majmuaning asosiy kanali 2 kilometr uzunlikda bo'lib, u orqali sayyohlar hudud tuzilmalarning nusxalari, shu jumladan Kalta Minor miniatyurasi bo'ylab suzib o'tganlarida ekoturizmning mavjud ekanligiga duch keladilar. Umuman olganda Arda Xiva me'morchiligi qadimiy Ichan-qal'aning ko'rinishida tasvirlangan va zamonaviy tarzda aks ettirilgan. Ekologik tozalikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, binolar quyosh batareyalari bilan jihozlangan va yagona iqlim nazorati tizimiga birlashtirilgan[9].

Metodologiya

Mazkur tadqiqot Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va qadimiy obidalar o'rnini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi usullar qo'llanildi:

1. Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud ilmiy manbalar, maqolalar va hisobotlar asosida ekologik turizmning nazariy asoslari tahlil qilindi.
2. Geografik tahlil usuli – Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy-geografik sharoitlari (relyef, iqlim, suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi) o'rganildi.
3. Kartografik usul – mintaqaning turistik obyektlari, tarixiy yodgorliklari va ekoturizm yo'nalishlari xarita asosida aniqlanib, ularning joylashuvi tahlil qilindi.
4. Kuzatuv va joyida o'rganish – Xiva, G'ovuk ko'li, Arda Xiva majmuasi singari ob'ektlarda amaliy kuzatuvlar olib borildi, mahalliy aholi va sayyohlar fikrlari o'rganildi.
5. Qiyosiy tahlil usuli – Quyi Amudaryo mintaqasi boshqa ekologik turizm hududlari bilan solishtirilib, o'ziga xos jihatlar aniqlangan.
6. Statistik ma'lumotlardan foydalanish – Urganch davlat universiteti va Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida mintaqadagi sayyohlar oqimi, infratuzilma va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijada tadqiqot mintaqaning tabiiy imkoniyatlari, tarixiy merosi hamda ekologik turizm salohiyatini kompleks baholash imkonini berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tabiat qo'ynida dam oluvchilar uchun qulaylik yaratish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirgan ma'quldir:

- tabiat bag'rida dam oluvchi sayyohlarga xushmanzara joylarda tunab qolish uchun maxsus joylar barpo qilish, barcha turdagi qulayliklarni yaratish, yo'lsiz tabiiy xududlarda harakatlanishlari uchun mahalliy transportlar- ot, eshak, tuyalar tashkil qilish, dam olishni maroqli o'tkazishlari uchun barcha qulayliklarga ega va

anjomlari bilan baliqlantirilgan suv havzalari tashkil qilish, xorijiy yoki mahalliy sayyohlarni dam olishlarini maroqli o'tkazishlari uchun mintaqa osmoni butun kun va tun bo'yi ochiq bo'lishini e'tiborga olib, madaniy xordiq chiqarishlari uchun folklyor jamoalarini kontsert dasturlarini tashkil qilish va boshqalar.

Agar biz vohada ekoturizmni rivojlantirsak vatanimizga yaxshigina daromad va sarmoyalar kirib kelishi aniq va bu sarmoyalar tabiatimizni yanada go'zallashtirishga, tabiiy resurslarimizni qayta tiklashga, xalqimizning farovonligiga va ravnaqiga xizmat qiladi, bizning Orol bo'yi deb e'tirof etilgan hududiy muammolarimiz ham o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dusanova Sh.B. O'zbekistonning ekologik turizm salohiyati va uni rivojlantirish yo'llari. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2022.
2. To'rayev A., Raxmonov I. Ekoturizm asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Jo'raev B. Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy geografik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Karimov A. Xorazm viloyatining turizm salohiyati va ekologik muammolari. – Urganch: UrDU, 2023.
5. Ходжаев Ш. Экологический туризм в Центральной Азии: проблемы и перспективы. – Ташкент: Изд-во “Фан”, 2019.
6. Xudoyberganova N. O'zbekistonning tabiiy muhofaza etiladigan hududlari va ularning turizmga ahamiyati. – Toshkent: TDPU, 2021.
7. UNESCO. World Heritage Sites in Central Asia and their Role in Sustainable Tourism Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
8. United Nations Environment Programme (UNEP). Ecotourism and Sustainable Development in Arid Regions. – Nairobi: UNEP, 2018.
9. Хамидов Р. Амударья бассейнида экотуризм ва биологическое разнообразие. – Нукус: Каракалпакстан, 2022.
10. World Tourism Organization (UNWTO). Ecotourism and Protected Areas: Guidelines for Sustainable Tourism Development. – Madrid: UNWTO, 2019.
11. Berdimurodov S. Ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

12. Rasulov Z. Orolbo‘yi mintaqasida ekologik turizm imkoniyatlari. – Nukus: Berdaq nomidagi QDU, 2021.
13. Qodirova M. Ekoturizm va barqaror rivojlanish konsepsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
14. Abdullayeva D. O‘zbekistonning turizm geografiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
15. Mamatqulov E. Ekoturizmda ekologik xavfsizlik masalalari. – Toshkent: TDYU, 2023.
16. Mirzayev U. Xorazm vohasining tabiiy geografiyasi va landshaftlari. – Urganch: UrDU, 2022.
17. FAO. Sustainable Use of Natural Resources in Ecotourism Regions. – Rome: FAO Publishing, 2018.
18. European Environment Agency. Tourism and the Environment: Towards a Sustainable Relationship. – Copenhagen: EEA, 2020.
19. Rakhimova S. Ekoturizmda madaniy meros obidalarining o‘rni. – Toshkent: Fan, 2021.
20. Karimova N. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari. – Urganch: UrDU, 2024.